

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodirov	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

**O‘ZBEKISTONDA JAMIYATNING MA’NAVIY SALOHİYATI VA UNING IJTIMOİY
TARAQQIYOTNI TA’MINLASHDAGI ROLI**

**НРАВСТВЕННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ ОБЩЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И ЕГО РОЛЬ В
ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ**

**THE MORAL POTENTIAL OF SOCIETY IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN ENSURING
SOCIAL DEVELOPMENT**

Jabborova Saodat Sattorovna¹

¹Jabborova Saodat Sattorovna

– Turon Zarmed universiteti, “Tarix” kafedrası o‘qituvchisi, Buxoro davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma’naviy salohiyat – jamiyatning ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o‘z a’zolari dunyoqarashi va ma’naviy olamini yuksaltirish, ko‘p asrlik ma’naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazish, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash borasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlari, vositalari yig‘indisi ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье поясняется, что духовный потенциал – это совокупность возможностей и инструментов, которые можно использовать для развития форм общественного сознания общества, поднятия мировоззрения и духовного мира его членов, сохранения многовекового духовного наследия и передать его будущим поколениям, обеспечить духовную безопасность.

Abstract

This article explains that spiritual potential is a set of opportunities and tools that can be used to develop forms of social consciousness of society, to raise the worldview and spiritual world of its members, to preserve the centuries-old spiritual heritage and to pass it on to future generations, to ensure spiritual security.

Kalit so‘zlar: ma’naviy salohiyat, Yangi O‘zbekiston, jamiyat salohiyati, iqtisodiy salohiyat, ma’naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot, milliy mafkura, madaniy meros.

Ключевые слова: духовный потенциал, Новый Узбекистан, потенциал сообщества, экономический потенциал, духовно-духовная среда, социальный потенциал, творческое мышление, общественное развитие, национальная идеология, культурное наследие.

Key words: spiritual potential, New Uzbekistan, community potential, economic potential, spiritual environment, social potential, creative thinking, social development, national ideology, cultural heritage.

KIRISH

Yurt kelajagi, jamiyat a‘zolarining farovon turmushi ijtimoiy taraqqiyot sur‘atlari bilan hamohang ekanligi yangi fikr emas. Qaysiki mamlakatda taraqqiyotning maqbul sur‘atlari saqlab turilgan bo‘lsa, o‘sha diyorda fuqarolar turmushi ham izchil farovonlashib boradi, yurt yorug‘ kelajak sari ildamlaydi. Aksincha, ijtimoiy rivojlanishdagi har qanday turg‘unlik darhol fuqarolar turmushi darajasida, kelajak maqsadlariga erishish imkoniyatlarida o‘z aksini topadi. Binobarin, Yangi O‘zbekistonni barpo etish, mamlakat fuqarolari turmushi darajasini uzluksiz oshirib borish uchun barqaror ijtimoiy taraqqiyot sur‘atlarini ta’minlamoq, buning uchun esa jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha salohiyatlardan oqilona foydalanmoq darkor. Mamlakatni isloh etishga qaratilgan strategiyada bu aksioma e‘tibordan chetda qolgani yo‘q, albatta.[1] Biroq ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashda jamiyat ma’naviy salohiyatining ayricha o‘rni bor.

“O‘zbek tilining izohli lug‘atida” *salohiyat* deganda qobiliyat, iqtidor tushunilishi e‘tirof etiladi.[2] Ilmiy manbalarda esa salohiyat muayyan maqsadga erishishda qo‘llaniladigan imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar manbai sifatida ta’riflanadi.[3] Tabiiyki, uni turli kontekstlarda – insonga yoxud jamiyatga nisbatan qo‘llash mumkin. Inson salohiyati alohida individning qobiliyat va iqtidorlarini o‘z ichiga oladi. *Jamiyat salohiyati* xususida gapirganda, uning turli sohalarni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlari, resurslari, vositalari yig‘indisi nazarda tutiladi. Odatda jamiyat salohiyati quyidagilardan tarkib topishi qayd qilinadi:

1. Iqtisodiy salohiyat
2. Siyosiy salohiyat
3. Ijtimoiy salohiyat

4. Ma'naviy salohiyat

Ko'rinib turibdiki, jamiyat salohiyati murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Uning markaziy elementi *iqtisodiy salohiyatdir*. Uni tavsiflashga intilgan mutaxassislarning fikriga ko'ra, iqtisodiy potensial nafaqat mamlakatning ishlab chiqarish quvvatlaridan, balki mavjud iqtisodiy resurslardan, shuningdek, ushbu resurslarni mamlakat ehtiyojlarini qondirishda qo'llash imkoniyatlaridan tashkil topadi. Mavjud resurslardan foydalanish uchun mamlakat muayyan infrastrukturaga, iqtisodiy tajribaga ega bo'lmog'i kerak – bu obyekt va tajribalar ham iqtisodiy salohiyat tarkibiy qismlari hisoblanadi. Iqtisodiy salohiyatning to'laqonli qo'llanilishi oqilona iqtisodiy siyosat va o'zaro manfaatli xalqaro iqtisodiy aloqalarga borib taqaladi.[4] Iqtisodiy salohiyatning jamiyat salohiyati tizimidagi markaziy o'rni shuning bilan bog'liqki, u boshqa tarkibiy elementlar – siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy salohiyatlarning mazmuni, salmog'i hamda xarak-terini belgilab beradi.


Iqtisodiy salohiyat jamiyat salohiyatining yagona tarkibiy elementi emas. Bu borada siyosiy salohiyatning ham alohida o'rni bor. *Siyosiy salohiyat* siyosiy hokimiyatning jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish bilan bog'liq imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Uning miqdoriy va sifatli xossalari quyidagilar kiritiladi: mavjud siyosiy rejim, davlat hokimiyati organlarida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning kasbiy mahorati va siyosiy madaniyati, oliy hokimiyat vakillarining siyosiy yetukligi va siyosiy irodasi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklari, fuqarolik jamiyatining shakllanganligi darajasi va h.k.[5] Siyosiy salohiyat yuqori bo'lgan mamlakatda siyosiy kuchlar yagona ijtimoiy maqsad atrofida birlashishga qodir bo'ladi.

Jamiyat salohiyatining yana bir elementi – *ijtimoiy salohiyatga* keladigan bo'lsak, u jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy va etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini, ta'lim va tibbiyot muassasalari, ijtimoiy ta'minot, sport va madaniyat maskanlari, maishiy xizmat ko'rsatish, transport va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarning samarali faoliyatini ta'minlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy salohiyat inson va ijtimoiy kapitalni rivojlantiruvchi asosiy manbalardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jamiyat salohiyatining o'ziga xos tarkibiy elementlaridan biri ma'naviy salohiyatdir. *Ma'naviy salohiyat* tushunchasini ta'riflash uchun avvalo "ma'naviyat" tushunchasi mazmuniga e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. "Ma'naviyatga ijtimoiy ong, dunyoqarash, e'tiqod, din, diniy amaliyot, milliy g'oya, milliy mafkura, insonning odobi, axloqiy fazilatlar, badiiy, ilmiy va boshqa ijodiy izlanishlari, bu borada erishgan yutuqlari, jamiyatning asrlar osha kelayotgan osori-atiqalari va madaniy merosi, urf-odatlar, zamondoshlarimizning kelajak haqidagi tasavvurlari-yu ijobiy ma'nodagi orzu-havaslari va rejaları daxldordir".[6] Ushbu mulohaza "ma'naviy salohiyat" definitsiyasini bayon etishda nazariy asos vazifasini o'taydi. Shunday qilib, *ma'naviy salohiyat – jamiyatning ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o'z a'zolari dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirish, ko'p asrlik ma'naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga etkazish, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, vositalari, zaxiralari yig'indisidir*.

Jamiyat ma'naviy salohiyatini aniqlash imkonini beradigan mezonlar tizimi mavjud. Biz ushbu tizimni quyidagicha tasavvur qilamiz:



Ma'naviy salohiyatning dastlabki mezonini *ma'naviy-ruhiy muhit* bilan bog'liq. Ma'naviy-ruhiy muhit deganda odatda jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning xarakteri nazarda tutiladi.[7] Bu munosabatlar o'zaro hurmat va o'zaro ishonch tamoyillariga asoslangan bo'lsa, jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhit sog'lom deya tan olinadi. Hurmat va ishonch tanqisligi mazkur muhitning nosog'lomligidan dalolat beradi. Bir qarashda ma'naviy salohiyat bilan muhit o'rtasida biror bir aloqadorlik ko'zga tashlanmaydi. Aslida esa bunday emas. Ma'naviy salohiyatni iqtidorli kishilar vujudga keltiradilar. Har qanday iqtidor, qobiliyat rivoji esa, dasturilavvalda mavjud muhitga borib taqaladi. Shaxs mislsiz iqtidorga ega bo'lishi mumkin, biroq uning rivoj topishi uchun maqbul muhit – kishilarning pozitiv munosabati, hurmati va ishonchi taqozo qilinadi. Muhit nafaqat iqtidorning shakllanishi va rivojlanishiga, balki uning xarakteri va ijtimoiy salmog'iga ham zamin hozirlaydi. Chunki aynan muhit shaxs qobiliyati va iqtidorini u yoki bu maqsad sari yo'naltiradi: sog'lom muhit uni ijtimoiy manfaatlarga bo'ysundirsa, nomaqbul muhit unga g'ayriijtimoiy tus beradi. Xuddi shuning uchun mamlakat Prezidenti: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak", [8]- degan edi. Binobarin, sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit hukm surgan yurtida ma'naviy salohiyat uzluksiz takomil topadi, nosog'lom ma'naviy-ruhiy muhit uning rivojiga imkon qoldirmaydi, to'sqinlik qiladi. Shu sababga ko'ra, jamiyat ma'naviy salohiyati avvalo undagi ma'naviy-ruhiy muhit xarakteriga qarab aniqlanadi.

Ma'naviy-ruhiy muhit nafaqat alohida kishilar iqtidorining, balki barcha *jamiyat a'zolari madaniy saviyasining* yuksalishiga zamin yaratuvchi omillardan biridir. Uning shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladi, biroq bu omillar turkumida ma'naviy-ruhiy muhit alohida o'rin tutadi. "Qaysiki jamiyatda bilim va qadriyat shaxslar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar xarakterini belgilovchi mezon darajasiga ko'tarilsa, o'sha jamiyatda bilim va qadriyatlarni o'zlashtirishga intilish katta bo'ladi, kishilarda bilim va insonparvar qadriyatlarni ulug'lash kayfiyati ildiz otadi".[8-15b] Shunday kayfiyatdagi kishilar, ya'ni yuksak madaniy saviyaga ega bo'lgan jamiyat a'zolari soni ortgani sayin ijtimoiy ong shakllarini boyitish, millat ma'naviy tajribalarini oshirish imkoniyatlari kengayib boraveradi. Jamiyatda madaniy saviyasi baland kishilar ko'paygani sayin millatning ma'naviy merosini asrash va kelgusi avlodlarga etkazish tizimi ham katta samara kasb qiladi. Kishilar madaniy saviyasidagi nuqsonlar ma'naviy salohiyatni yuksaltirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bunday nuqsonlar mavjud jamiyatda ijtimoiy ong shakllari rivoji sekinlashadi, ma'naviy tajribalarning jamlanishi qiyin kechadi, ma'naviy meros tanazzulga yuz

tutadi. Modomiki, jamiyat ma'naviy salohiyatini aniqlashda jamiyat a'zolari madaniy saviyasi ham o'ziga xos mezon vazifasini o'tashi mumkin.

NATIJALAR

Ma'naviy salohiyatning muhim mezonlaridan biri *milliy g'oya va mafkura* bilan bog'liq. Milliy g'oya, "mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog'lom, ezgu maqsad sari birlashtirib, uning o'z muddolariga erishishi uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo'lib kelgan".[9] Jamiyat a'zolari yagona maqsad – milliy g'oya atrofida birlashmas, uni ro'yobga chiqarishga o'z hissasini qo'shmas ekan, ijtimoiy ong shakllari rivoji, milliy-ma'naviy tajribalar yuksalishi, ma'naviy xavfsizlikning ta'minlanishi xususida gap ham bo'lishi mumkin emas. Jahon mafkuraviy olamidagi tajribalar ham ushbu xulosaning naqadar asosli ekanini ko'rsatib turibdi. Qaysi mamlakatda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, uni fuqarolar ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor berilgan bo'lsa, o'sha yurtda ma'naviy salohiyatning jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Masalan, AQSH mafkurasi millatning o'ziga xosligi va tanlanganligi haqidagi g'oyalarga, uning a'zolari muvaffaqiyatga erishishiga bo'lgan ishonchga tayanadi.[10] Mafkuraviy tarbiyaning turli bosqichlarida fuqarolarga mazkur g'oya mufassal singdirib boriladi va shu orqali kishilarning yagona maqsad atrofida birlashishi ta'minlanadi. "Bunday yondashuv Amerika yoshlarini faqat "amerikacha orzuga" ishonishga, o'zga har qanday mafkuraviy qarashni qabul qilmaslikka odatlantirmoqda".[11] Bundan tashqari, fuqarolarni yagona milliy g'oya atrofida birlashtirish masalalariga e'tibor mamlakat ilm-fani va san'ati rivoji sur'atlariga, jamiyat a'zolari dunyoqarashi kengayishiga zamin yaratmoqda. Shunga o'xshash holat va tendensiyalarni G'arbiy Evropaning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida ko'rish mumkin. Aksincha, qaysi mamlakatda kishilarni muayyan milliy g'oya atrofida birlashtirish masalalariga panja ortidan qaralgan bo'lsa, o'sha diyorda ma'naviy salohiyat ham pastligicha qolmoqda. Sirasini aytganda, Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrikaning ko'plab mamlakatlarida ma'naviy salohiyatning nihoyatda sekinlik bilan takomil topayotgani sabablaridan biri ham shunga borib taqaladi. Ushbu mulohazalarga asoslanib ta'kidlash mumkinki, jamiyatdagi ma'naviy salohiyatni aniqlash imkonini beradigan mezonlardan biri milliy g'oya va mafkuraning shakllanganligi darajasi bilan bog'liqligini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

Jamiyat ma'naviy salohiyatini *ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kishilar soniga* qarab ham aniqlasa bo'ladi. Tafakkur yuritish jamiyatning har qanday a'zosiga xos qobiliyatlardan biridir, albatta. Biroq, bizga ma'lumki, tafakkur shakllari o'zining turli-tumanligi bilan tavsiflanadi. Standartlashgan, muayyan qoliplar bilan cheklangan tafakkur sohibi yangi bilim va g'oyalarning vujudga kelishiga xizmat qilmaydi, shu sababdan uni ma'naviy salohiyatni shakllantiruvchi manba sifatida baholab bo'lmaydi. Bundan farqli o'laroq, ijodiy tafakkur yuritishga qodir kishilar turli masalalarga nostandart yondashishga odatlanganlari tufayli aksariyat hollarda yangi va yangi bilim va g'oyalarning, ixtiro va kashfiyotlarning bunyod bo'lishiga sababchi bo'ladilar. Masalan Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ijodiy tafakkuri o'nli sanoq sistemasining paydo bo'lishiga, Ahmad al-Farg'oniyning ijodiy tafakkuri Nil daryosidagi suv sathini o'lchaydigan inshootning barpo qilinishiga, Abu Rayhon Beruniyning ijodiy tafakkuri Yerning kattaligini o'lchash usulining shakllanishiga olib keldi. Shu tariqa ijodiy tafakkurga ega bo'lgan kishilar millat ma'naviy mulki salmog'ini oshirishga, ma'naviy salohiyatining yuksalishiga xizmat qiladilar. Bundan tashqari, ijodkor kishilar jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitni shakllantiruvchi qudrat sanaladilar: ijodkorlar ko'p bo'lgan jamiyatda sog'lom ma'naviy muhit hukm suradi. Shuni nazarda tutgan holda, davlat rahbari mamlakat ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvda: "Olimlik Oллоh nurini solgan ulug' bir martaba. Bu martabadan jamiyatning butun vujudiga nur, ziyo taraladi. Olimlarning suhbatidan inson o'ziga beqiyos ma'naviy boylik oladi, qalb kengliklarini, tafakkur teranligini his qiladi" [12]-degan edi. Xuddi shuning uchun bunday kishilarning o'zini jamiyat ma'naviy salohiyatidan dalolat beruvchi mezonlardan biri sifatida e'tirof etmoq darkor.

Jamiyatda ijodiy tafakkurga ega kishilar soni oshib borsa, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xodimlar sifatida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi, bu esa ma'naviy salohiyatning *yangi ilmiy ta'limot va nazariyalar, ixtiro va kashfiyotlar* evaziga boyishiga zamin yaratadi. Fikrimizni AQSH tajribasi misolida davom ettiramiz. Ma'lumki, AQSH oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun abituriyent SAT yoki ACT standartlashtirilgan testlarini topshirishi va uning natijalarini qabul komissiyasiga taqdim etishi zarur. Har ikkala testning asosiy maqsadi turli axborotlardan xabardorlik darajasini emas, izchil va mantiqiy fikrlash qobiliyatini, axborotni tahlil qilish malakasini

FALSAFA

aniqlashdan iborat.[13] Mazkur talab oliy ta'lim muassasalariga kirish ishtiyoqida bo'lgan yoshlarni testlarni ko'r-ko'rona yodlashga emas, mantiqiy mulohaza qilish malakasini o'zlashtirishga undamoqda. Bu holat jamiyatda ijodiy fikr yuritishga moyil, loaqal shunga intilayotgan kishilarning oshishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Oliy ta'lim maskanlari esa ko'pdan ko'p abituriyentlar orasidan ijodiy tafakkur yuritishga qodir yoshlarni saralab olishga, keyinchalik ularning ko'pchiligini oliy ta'limdan keyingi ta'limga, davlat grantlari evaziga amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Shu tariqa ilmiy faoliyat bilan shug'ullanayotgan xodimlar tarkibi ijodiy tafakkur sohiblari evaziga boyib bormoqda. Ularning ilmiy izlanishlarga samarali jalb etilishi mamlakatdagi yangi ilmiy ta'limot va nazariyalar, ixtiro va kashfiyotlar sonining ko'payishiga poydevor yaratmoqda. Jumladan, bugungi kunda AQSHda 3 yarim milliondan ortiq ilmiy xodim faoliyat olib boradi.[14] Ularning salmoqli qismini ijodiy, nostandart tafakkur yuritishga qodir kishilar tashkil etadi. Mamlakatning turli reytinglarda (masalan, Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlar soni bo'yicha) yetakchi o'rinlarni egallayotgani shundan dalolat beradi. Buning sharofati bilan birgina 2020 yilda 621 ming 453 ta ixtiroga patentlar olingan.[15] Ushbu ko'rsatkich eng yaxshi umumjahon ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Yangi ilmiy ta'limot va nazariyalar, ixtiro va kashfiyotlar miqdorining shiddatli o'sishi esa mamlakat ma'naviy salohiyatini yuksaltirmoqda. Shunga asoslangan holda ilmiy ta'limot va nazariyalar, ixtiro va kashfiyotlar sonini jamiyat ma'naviy salohiyati mezon sifatida olish mumkin.

NATIJARLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, ma'naviy salohiyat jamiyat salohiyatining muhim tarkibiy elementi bo'lib, ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o'z a'zolari dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirish, ko'p asrlik ma'naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga etkazish, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar, vositalar, zaxiralar yig'indisidan tarkib topadi. U ma'naviy-ruhiy muhit, jamiyat a'zolari madaniy saviyasi, milliy g'oya va mafkura, ijodiy tafakkurga ega kishilar soni, yangi ilmiy ta'limot va kashfiyotlar soni, ma'naviy yuksalishga undovchi adabiyot va san'at asarlari soni, ma'naviy merosga munosabat, ma'naviy xavfsizlik darajasi kabi mezonlar yordamida aniqlanadi. Jamiyatning ma'naviy salohiyati yuksala borgani sayin uning iqtisodiy taraqqiyoti jadallashadi, ijtimoiy barqarorligi mustahkamlanadi, siyosiy liberalizm kuchayadi, ma'naviy madaniyat rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.3// А.Мадвалиев таҳрири остида.- Т.:Ўзб. миллий энциклопедияси, 2007.- Б.432.
3. Бабинцев В.П., Куркина М.П. Человеческий потенциал как научная категория.// Nomothetika: Философия. Социология. Право, 2012, №8.- 224-с.
4. Курбанов А.Х., Плотников В.А. Экономический потенциал страны как экономическая категория.// Экономическое возрождение России, 2016, №3.- 48-с.
5. Потенциал политический.// Военный энциклопедический словарь.- slovaronline.com/browse/e4914c 35-67f5-313e-a0eb-0c4da46a6f9e.
6. Эркаев А. Маънавиятшунослик. Биринчи том.- Т.:Маънавият, 2018.- Б.11.
7. Среда социально-психологическая.// big economic dictionary. academic.ru.
8. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисига Мурожаатномаси.// <https://president.uz>.
9. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.// Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Том 8.- Т.:Ўзбекистон, 2000.- Б.490.
10. Баразгоба Е.С. Идеологическое воспитание молодежи (на примере США): Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. докт. филос. н.- Свердловск, 1990.- С.20.
11. Ибрагимов Э.Х. Маънавий-руҳий манипуляциянинг ёшлар дунёқарашига таъсири: Фалс. докт. (PhD) дисс.- Самарқанд: СамДУ, 2019.- Б.103.
12. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақиға хизмат қилсин.// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж.1.- Т.:Ўзбекистон, 2017.- Б.166.
13. SAT – тест для поступления на бакалавра в США и Канаду.// www.educationindex.ru.
14. Заикина В. Научные исследования и наука в США.// irsepi.ru, 2022, 7 июня.
15. Рейтинг стран по количеству патентов.// nonews.co.